



E'zoza QURBONOVA,

Guliston davlat universiteti doktoranti, PhD

E-mail: ezozasabirova118@gmail.com

Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti, DSc Sh.Gulyamova taqrizi asosida

SEMANTIC CHARACTERISTICS OF LEGAL TERMINOLOGY UNITS

Annotation

This article analyzes the semantic properties of legal terms through their expression of special meaning through common units or international units. The article uses descriptive, semantic-pragmatic, and structural analysis methods to analyze the semantic properties of terminological units in the field of jurisprudence in a descriptive and descriptive manner, and explores their content in terms of their use in various regulatory legal documents.

Key words: Legal terminological system, term, semantics, lexical unit, special lexicon, polysemy, multifunctionality.

СЕМАНТИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ЕДИНИЦ ЮРИДИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ

Аннотация

В данной статье анализируются семантические свойства юридических терминов путем выражения их специального значения посредством общеупотребительных единиц или международных единиц. В статье с помощью методов описательного, семантико-прагматического и структурного анализа проанализированы семантические свойства терминологических единиц в сфере юриспруденции в описательно-описательном ключе, а также изучено их содержание с учетом использования в различных нормативно-правовых документах.

Ключевые слова: Юридическая терминсистема, термин, семантика, лексическая единица, специальная лексика, полисемия, полифункциональность.

YURIDIK TERMINOSISTEMA BIRLIKLARINING SEMANTIK O'ZIGA XOSLIGI

Аннотация

Ushbu maqolada huquqshunoslikka oid terminlarning semantik xususiyatlari uning umumiste'mol birliklari yoki baynalmilal birliklar orqali maxsus ma'no ifodalashi orqali tahlil qilinadi. Maqolada deskriptiv, semantik-pragmatik, struktur tahlil metodlari qo'llanilib, yurisprudensiya sohasiga oid terminologik birliklarning mazmuniy xususiyatlari tasviri, tavsifiy tahlil qilindi, turli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda qo'llanishiga ko'ra mazmuni tadqiq etildi.

Kalit so'zlar: Yuridik terminosistema, termin, semantika, leksik birlik, maxsus leksika, polisemiya, polifunksionallik.

Kirish. Terminologiya – leksikaning eng faol so'z o'zlashtiriladigan qismi. Chunki fan sohalari taraqqiyoti global ahamiyat kasb etadi: dunyoning bir chetida amalga oshirilgan kashfiyot, yangiliklar barcha mamlakatlarga yoyiladi. Tabiiyki, fan sohasidagi yangi tushunchalarga qo'yilgan nom boshqa xalqlar leksikasiga ham kirib boradi. Natijada dunyoning juda ko'p mamlakatlarida bir xil ma'no ifodalashga qo'llanadigan leksik birliklar tizimi shakllanadi. Huquqshunoslik terminologiyasida ham baynalmilal leksika salmoqli qismni tashkil etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ba'zi mutaxassislar "o'zga tillardan termin o'zlashtirish shunchaki nusxa ko'chirish shaklida bo'lmasligi lozim"[1] ligini ta'kidlashadi. Bunda baynalmilal terminlarning turli xalqlarda bir xil ma'no ifodalashi qayd etilgan holda har bir til fonetik va morfologik meyorlariga moslashtirilishi lozimligiga e'tibor qaratiladi. Konstitutsiya (constitution), diktatura (dictature) kabi huquqshunoslikka oid terminlarning shakllanishida shunday holatni ko'rishimiz mumkin. Umuman, baynalmilal terminlar shaklan aynanlikka ega bo'ladimi, biron farqlanadimi, semantik jihatdan bir xil tushunchalarni ifodalaydi. Shu nuqtayi nazardan zamonaviy mutaxassis bo'lish uchun fanning xalqaro holatidan, shu jumladan, terminologik tizimidan ham xabardor bo'lishi talab etiladi. Terminlarning semantik xususiyatlari tadqiq qilingan ishlarda yurisprudensiya kabi ochiq sistema ichida mavjud bo'lgan terminlar mazmuniy jihatdan o'zgarishi mumkinligi ta'kidlanadi [14]. Malyukova E. V. yuridik terminologiyani sistemasentrik va antroposentrik jihatdan tadqiq qilib, yuridik terminologiyaning semantik xususiyatlari asosida terminlarni turlarga ajratgan [15]. Martishko N.Y. qonunchilik sohasida terminlarning mazmuniy modifikatsiyasini tadqiq qilib, yuridik terminlarning qo'llanishida terminologik manipulyatsiya hodisasini tavsiflaydi [16]. Bu borada xalqaro va milliy tilshunoslikda amalga oshirilgan tadqiqotlar yuridik

terminologiyani turli jihatdan tavsiflaydi. Umuman olganda yuridik terminologik birliklarning semantik xususiyatlarini tadqiq qilish sohaning bir qator muammolariga yechim bera oladi, natijada qonunchilik, huquqiy munosabatlar, shuningdek, jamyatda huquqiy ong va madaniyatning yuksalishiga hissa qo'shadi. Tadqiq qilayotganimiz o'zbek yuridik terminlarining o'ziga xos xususiyatlari orqali ham shu kabi masalalarga ijobiy yechim taklif qilish maqsad qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Yuridik terminologik birliklarning mazmuniy xususiyatlarini tadqiq qilishda deskriptiv, struktur tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Huquqshunoslikka oid prokuror termini etimologik jihatdan lotin tiliga mansub bo'lib, "g'amxo'rlik qilmoq" ma'nosini anglatadi. Mazkur leksema o'zlashgan barcha tillarda u "qonunlarga to'la amal qilinishi va ularning to'g'ri qo'llanishi ustidan davlat nazorati olib boruvchi mansabdor; sud jarayonida davlat qoralovchisi" [2] ma'nosida qo'llanadi. Shu kabi terminlarning xalqaro ahamiyatini hisobga olgan holda, milliy muqobilini topish va qo'llash maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Boshqacha aytganda, "baynalmilal xarakterdagi ko'pgina terminlar tarkiban o'ta rang-barang bo'lib, texnika, ilm-fan, madaniyat, san'atning hamma sohalarini qamrab olgan. Bunday yuzaga kelishni ifodalovchi hamda muttasil rivojlantiruvchi terminlar qatlami o'zbek tilining mulkiga aylangan. Hozirgi paytda ham tayyor terminlarni o'zlashtirish jarayoni o'z faolligini saqlab qolmoqda" [3]. O'zbek huquqshunoslik terminologiyasida demokrat, demokratiya, impichment, respublika, prezident, parlament, amnistiya, deputat, kriminologiya, konstitutsiya kabi leksik birliklar shunday leksik-semantik va struktur xususiyatlarga ega.

Shu o'rinda terminlarning fan sohalaridan biriga yoki bir nechtasiga tegishli bo'lishi, ularning leksik-semantik qamrovi mutaxassislar tomonidan belgilanishi, ma'nodoshlar mavjud

bo'lganda ular orasidan bittasi tanlanishini ta'kidlab o'tish lozim. Shu sababli sohaga doir terminlar orasida ma'nodoshlik kam kuzatiladi. Kriminalistika, tergovchi, jinoyat, huquqbuzarlik kabi terminlarning termin sifatida ma'nodoshlari mavjud emasligi fikrimizni dalilaydi. Terminologik sinonimlarning mavjud bo'lishi tilda vaqtinchalik hodisa sanaladi. Terminologik sinonimlardan biriga soha mutaxassislari tomonidan ustuvorlik berilishi va shu terminning sohaga doir matnlarda faol qo'llana boshlashi natijasida leksemaning terminologik ma'nosi kuchayadi. Masalan, prokuror – qoralovchi, ayblanuvchi – aybdor, gumondor – gumon qilinuvchi, advokat – oqlovchi kabi sinonim juftliklardan birinchisi huquqshunoslikka doir matnlarda faol qo'llanishi bilan ajralib turadi. Terminlar orasida sinonim leksemalar mavjudligi muammo, albatta. Zero, boshqa sohalarida bo'lganligi kabi, huquqshunoslikka ham ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda terminlarning tartibga solinganligi dolzarb masalalardandir. Mukammal terminlar tizimisiz qonunchilik matni ham aniq bo'lmaydi. Terminlar aniqligi qonunlar, shuningdek, ular bilan bog'liq bo'lgan hujjatlarni meyoriy holga keltiradi, ixchamlashtiradi va o'rtiqcha tavsif, ta'riflardan xalos etadi. “Mamlakatda qonunlarning mukammal ishlab chiqilishida, huquqiy tartibotning ta'minlanishida, fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatining yuksalishida yuridik atamashunoslik ham muhim ahamiyat kasb etadi” [4]. Shunday ekan, terminlarda sinonimlik hodisasi bo'lmasligi, sinonim juftga ega bo'lganda ham, ulardan birida terminologik ma'noning ustuvor bo'lishi ilmiy matndagi aniqlikni ta'minlaydi.

Terminologiyada sohaga doir leksik birliklarning birma'noliligi muhim shartlardan biri sifatida ajratiladi. Tadqiqotlarda terminning monosemantiklik va birvazifalilik xususiyati quyidagicha talqin qilinadi:

“1) termin umuman faqat bir ma'noli bo'ladi;

2) termin muayyan bir sohada bir ma'noda qo'llanadi”[5].

Shu nuqatayi nazardan birinchi bandda qayd etilgan terminlarda asosiy semantik belgi birma'nolilik hisoblanadi. Advokat, affekt, aksept, aliment, amnistiya, anarxizm, anklav, anneksiya, aparteid, apellyatsiya, apostil, arbitraj, attashe, besoqolbozlik, bipatrid, byurokratiya, benefitsiar, daktiloskopiya, suverenitet, davlatchilik, de-yure, delimitatsiya, demokratiya, demarkatsiya, denonsatsiya, deputat, determinatsiya, diskriminatsiya, dispozitsiya, ekotsid, alibi, aristokratiya, auditor, saylov, senzura, vakolat, votum, veto, xayfsan kabi huquqshunoslikka oid terminlar monosemantiklik xususiyatiga ega. Terminning muayyan sohada bir ma'noda qo'llanishi umumtiste'moldagi leksik birliklarning muayyan sohada qo'llanishida namoyon bo'ladi. Bunday leksemalar guruhi umumtiste'mol birligi sifatida muayyan ma'noga ega bo'lsa-da, terminologik ma'noda yagona tushunchani ifodalaydi. Boshqacha aytganda, bunday leksemalar, aslida polisemantik bo'lib, ularning terminologik ma'nosi bir tushunchani ifodalaydi xolos. Shunday leksemalar sirasiga huquqshunoslikka oid semasi mavjud bo'lgan afv, ayb, ayblanuvchi, jazo, afv etish, ajrim, aldash, tuhmat, qamoq, ariza, arz qilish, ayblovl, bankrotlik, bandlik, beparvollik, harakatsizlik, da'vo, hadya, guvoh, da'vogar, haqorat qilish, huquq, taklif, vakil, vakillik, yo'riqnoma, yollanish, zo'rlik, kabi terminlarni kiritish mumkin. Sanalgan leksemalar o'z semantik tuzilishiga ko'ra o'rni bilan umumtiste'mol birligi sifatida ham, terminologik ma'noda ham qo'llanadi. Shunday bo'lsa-da, sanalgan leksemalar huquqiy terminologik tizimda ma'noda doimo birgina tushunchani ifodalaydi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi milliy huquqiy internet portalida joylashtirilgan va 1332 ta terminni qamrab olgan “Yuridik lug'at”da da'vogar leksemasi quyidagicha izohlangan:

“Da'vogar – fuqarolik protsessining taraflaridan biri, ishda ishtirok etuvchi shaxs. Da'vogar – o'zining buzilgan yoki nizolashayotgan huquqlari yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudga murojaat etgan yoinki manfaatini ko'zlab ish qo'zg'atilgan shaxs” [6].

Mazkur izohda da'vogar leksemasining “o'z manfaatini ko'zlab murojaat qilgan shaxs” terminologik ma'nosiga ega ekanligi namoyon bo'ladi. Ammo O'TILda bu leksemaning huquqshunoslikka daxldor ekanligi e'tirof etilgan holda, uning umumtiste'mol birligi sifatida qo'llanishi mumkinligiga ishora qiluvchi izohi ham keltirilgan. YA'ni leksemaning jami uchta

ma'nosi O'TILda izohlangan bo'lib, shulardan ikkitasi huquqshunoslik sohasiga aloqador terminologik ma'nolarni aks ettirsa, qolgan bir ma'no uning umumtiste'mol birligi sifatida qo'llanishini ta'minlaydi: “Musobaqa, tanlov, sport o'yinlarida yuqori o'rin uchun kurashuvchi” [7]. Izohli lug'atda keltirilgan bu ma'no huquqiy munosabatlarni emas, balki muayyan tadbirda ishtirok etayotgan va g'alaba qozonishni maqsad qilgan shaxsni ifodalaydi.

Sanalgan leksik-semantik xususiyatlar nafaqat so'z shaklidagi terminlar, balki birikma shaklidagi terminlarga ham aloqador ekanligini ta'kidlash lozim. YA'ni birikma shaklidagi terminlarda ham umumtiste'mol birligi sifatida qo'llana olish yoki faqat muayyan soha bilan bog'liqlik holati kuzatiladi. Qayd etib o'tish kerakki, birikma shaklidagi terminlarning umumtiste'mol birligi vazifasida qo'llanishi so'z shaklidagi terminlarga nisbatan kamroq kuzatiladi. Zero, termin birikma tarzida shakllantirilgan ekan, bu ilmiy tushunchani bir so'z bilan ifodalash qiyin bo'lganligini anglatadi. Nominativ birlik sifatida qaraladigan bunday birikmalar aksariyat hollarda faqat shu sohaga oid matnlardagina qo'llanadi xolos. Huquqshunoslik sohasi ham bundan mustasno emas, albatta. Dastlabki tergov, dastlabki sud muhokamasi, davlat tuzumi, da'vo arizasi, davomli jinoyat, dengiz huquqi, demokratik davlat, ekspert xulosasi, hadya shartnomasi, guvohning advokati, harbiy jinoyatlar, harbiy sir, haqiqatni aniqlash prinsipi, hakamlilik sudi, ozodlikni cheklash, hadyani bekor qilish, harbiy holat, hokimiyat vakili, hodisa joyini ko'zdan kechirish, jazoni ijro etish muassasasi, dastlabki sud instansiyasi, da'voni ta'minlash, delikt majburiyatlar, deputat so'rovi, deputatlar palatasi, diplomatik korpus, dunyoviy davlat, dualistik respublika, kassatsiya shikoyati, saylov byulleteni, saylov kampaniyasi, shaxsiy daxlsizlik, tabiiy huquq, yillik mehnat ta'tili, yo'l harakati xavfsizligi, yo'l-transport hodisasi, yosh senzi, yopiq sud majlisi, yuridik shaxs, yuridik amaliyot, yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash kabi huquqshunoslikka oid birikmali terminlar faqat sohada qo'llanadigan nominativ birliklardir, deyishimiz mumkin. Bunday terminlar huquqshunoslik sohasi uchun yaratilgan va shu sohaga oid matnlardagina qo'llanadi. Tabiiyki, bunday birikmalarining umumtiste'moldagi birikmalar bilan ma'nodoshlik, shakldoshlik hosil qilishi haqida gapirish noo'rin.

Huquqshunoslik sohasining inson faoliyati, turmush tarzi, jamiyat a'zosi sifatidagi xatti-harakatlarini ham qamrab olishi uning terminologiyasida umumtiste'mol birligi sifatida qo'llanishi mumkin bo'lgan birikmali terminlar mavjudligini izohlaydi. Ancha miqdor, ko'p miqdor, jazoni ijro etish, aqli rasolik, aqli zaiflik, asosiy jazo, avtonom tuzilma, dam olish vaqti, himoyalani shu huquqi, kam ahamiyatli qilmish, savdo faoliyati, yaroqsiz mahsulot, yashash joyi, yashirin shirkat, yukni oluvchi, yuridik fakt, yuridik tajriba, zararni qoplash, zaxira yerlar, yer uchastkasi, shartnoma shakllari, chet el banki, chet el fuqarolari, chin ko'ngildan pushaymon bo'lish kabi huquqshunoslikka doir birikmali terminlar umumtiste'mol birligi sifatida o'zbekcha matnlarda faol qo'llanadi.

Huquqshunoslik terminologik tizimi axloq, urf-odat va qadriyatlar bilan bog'liq leksik birliklarni ham qamrab oladi. Bu borada N.D.Golevning quyidagi fikrlarini keltirish maqsadga muvofiq: “kamsitish”, “yerga urish”, “qadr-qimmat”, “tuhmat”, “zarar”, “ma'naviy zarar” kabi leksemalar yuridik metatilda to'liq terminologik ma'no anglatadi, deb bo'lmaydi” [8]. Jahon tilshunosligida ba'zi olimlar huquqshunoslik meyorlariga mos keladigan, huquqiy munosabatlarni tartibga soladigan har qanday so'z va birikmani yuridik terminlar sirasiga kiritish mumkinligini qayd etadilar [9]. Bunda huquqshunoslikka oid terminlarning leksik-semantik xususiyatlari asosiy o'rin tutadi. Huquqiy terminologiya bilan shug'ullangan olimlar huquqshunoslikka oid leksik birliklarning “terminlashish” darajasini uch guruhga ajratishni taklif qiladilar:

umumtiste'mol birligi bo'la oladigan terminlar (bunday terminlar mutaxassis bo'lmagan shaxslar uchun ham tushunarli bo'ladi – E.S.);

maxsus huquqshunoslik terminlari (faqat huquqiy ifodadan tarkib topgan terminlar);

d) maxsus sohaviy terminlar (muayyan sohaga doir huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi terminlar) [10].

